



IKKI TILLI SHAXS MA'NAVIYATINI IFODALOVCHI ATOV BIRLIKLARI LUG'ATINING YARATILISH TAMOYILLARI

Normuminov Utkir Ishmuradovich

Qarshi davlat universiteti Fakultetlararo ingliz tili kafedrası o'qituvchisi
Qarshi davlat universiteti dotsenti Alimov Toshtemir taqrizi ostida,
utkir.normuminov@gmail.com

Annotatsiya: *Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'atlar sirasida sifat va saviya, ko'lam hamda qamroviga ko'ra leksikografiya talablariga to'liq muvofiq bo'ladigan lug'atlar sanoqli. Mavjud tarjima lug'atlarini ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi tur lug'atlar umumiy tarjima lug'atlari bo'lib, ularda tildagi leksik sath biror mavzu yoki boshqa ko'rsatkichiga ko'ra cheklanmaydi. Ikkinchi tur lug'atlar biror mavzu yoki semantik maydon doirasida chegaralanadi, bunday lug'atlar o'quv tarjima lug'atlaridir.*

Kalit so'zlar: *Leksikografiya, zamon, mezon, matn, birlik, imkoniyat.*

KIRISH.

“Har bir so'zning ma'nosi qisqa va aniq ifoda etiladi, so'zlarning, asosan, hozirgi ingliz adabiy tilida keng qo'llanadigan ma'nolari beriladi, so'z ma'nolarini ochishda misol va iboralardan keng foydalaniladi”. Keltirilgan iqtibosdan ikki narsani anlash mumkin:

- 1) izohlar qisqa va asosiy ma'nolarga beriladi;
- 2) ma'noni ochib berish uchun so'zdan yirikroq birliklardan ham foydalanish mumkin.

Shunday ekan, ikki tilli lug'atlarda leksemaning ko'chma ma'nolariga ham murojaat qilish lozim. Bosma nashrlarda leksikografik manbaning hajmi masalasi nuqtayi nazaridan leksemaning barcha ma'nolarini qamrab olish imkonsiz bo'lsa-da, til korpuslari, tezaruslar va elektron lug'atlarda so'zning barcha ma'nosi berilishi maqsadga muvofiq. Zero, “milliy korpus milliy til xazinasini demak. Undan lingvistlar, leksikograflar, kompyuter lingvistlari, muharrirlar, tarjimonlar, jurnalistlar, noshirlar, olimlar, o'qituvchilar, ta'lim oluvchilar va boshqa har qanday soha vakillari foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladi”¹.

Ya'ni zamonaviy leksikografik manbalar leksik birlikning barcha ma'nolarini qamrab olishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, ayrim leksemalarning faqat ko'chma ma'nolarigina shaxs ma'naviy sifatlarini ifoda etishi holatlari ham tilda uchraydi. Tahlilga tortgan leksemamiz (qiyshiq)da ham shunday holat kuzatiladi. Ya'ni o'zbek tilidagi “qiyshiq” leksemasining bosh ma'nosida shaxs ma'naviyatiga ishora mavjud emas. Ammo uning hosila ma'nosida inson tomonidan amalga oshiriladigan noqonuniy, g'ayriaxloqiy xatti-harakat, faoliyatni anglatadi.

Shaxs ma'naviyatini ifoda etuvchi atov birliklarining pragmatik ma'nolarni ham qamrab olishi lug'atning samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan muhimdir. Chunki so'nggi yillarda tilshunoslar orasida tilning ichki tuzilishini o'rganishdan ko'ra uning nutqiy vaziyatlarda qo'llanishi samaradorligini tekshirish masalasi ommalashmoqda. Zero, “asosiy muloqot vositasi sifatida tabiiy til barcha sohalarida faol qo'llanishi uchun uning jamiyat orasida qo'llanish xususiyatlari tekshirilishi lozim”². Umuman olganda, leksemaning pragmatik ma'nosi muayyan nutqiy vaziyatida asosiy o'ringa chiqishi mumkinligi bunday ma'noning leksikografik talqinda aks etishini taqozo qiladi.

Albatta, bu jarayon nihoyatda murakkabligi va lakunalarning vujudga kelishiga sabab bo'lishi bilan ajralib turadi. Ammo pragmatik ma'noning kontekst bilan bog'liq ekanligi u paydo qiladigan muammolarning

¹ Normamatov S. Leksikografiya asoslari. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B.12. – 124 b.

² Бушуева Т.С. Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Смоленск, 2005. – 20 с.



ham matn vositasida hal etilishiga olib keladi. Natijada pragmatik ma’noni izohlash jarayonida illyustrativ misollardan foydalanish shart bo’ladi. Masalan, o’zbek mentalitetida qarzdor odamning o’z qarzini uzmagunicha qarz bergan insonning ko’rinmay turishi uning yuksak ma’naviyatli ekanligidan dalolat beradi. Shu sababli muayyan nutqiy vaziyatda qarz beruvchi va qarz oluvchi orasidagi muloqot jarayonida qo’llangan “assalomu alaykum”, “vaalaykum assalom” kabi birliklar ham “xijolat bo’lmang, pulga ehtiyojim yo’q, topganda beraverasiz”, “juda xijolatdaman, tezda olingan mablag’ni qaytaraman” kabi ma’nolarni ifodalashi mumkin. Bu kabi pragmatik ma’nolarni lug’at maqolasida berish mushkul, albatta.

Sanalgan leksik birliklarning shaxs ma’naviyati bilan bog’liq bo’lgan bu kabi ma’no nozikliklarini ilg’ash uchun nafaqat tilni bilish, balki til egalarining hayot tarzi, mentaliteti, urf-odat va qadriyatlari bilan ham tanish bo’lish talab etiladi. Shu sababli bunday pragmatik ma’nolar tilni bilish darajasi nihoyatda yuqori bo’lgan foydalanuvchilar uchun tuzilgan lug’atlarda o’z aksini topishi maqsadga muvofiq, nazarimizda. Anglashiladiki, leksemaning ko’chma ma’nolari uchun ham izoh, illyustrativ misollar keltirish uning informativligini oshiradi. Aksariyat til birliklari faqat konnotativ ma’nosi bilangina shaxs ma’naviyatini ifoda eta olishi bunday amaliyotning nihoyatda muhimligini ko’rsatadi.

Shaxs ma’naviyatini ifoda etuchi atov birliklarining ikki tilli lug’atini tuzishda bosh so’z sifatida tanlangan birlik ma’nosini ifodalovchi o’zga til birligining to’g’ri tanlanishi; polisemantik birlik bo’lsa, ma’nolarning to’g’ri tartiblanishi leksikografik manba qiymatini oshirishi tabiiy. Masalan, “ko’tarma” leksemasining “O’zbek tilining izohli lug’ati”da uchta ma’nosi ajratilgan:

“KO’TARMA 1 Ko’tariladigan, ko’tarib qo’yiladigan qilib qurilgan. Ko’tarma ko’prik. Ko’tarma to’g’on.

2 Tuproqdan baland qilib, ko’tarib ishlangan tepalik, g’ov, to’siq. Temiryo’l ko’tarmasi. Suv ko’tarmani yuvib ketdi.

3 Maqtanchoq; manman”³.

Leksemaning shaxs ma’naviyatini ifodalovchi ma’nosi tartib bo’yicha uchinchi o’ringa qo’yilgan. Aynan shu ma’noni ifodalash uchun ingliz tilida boastful, vainglorious, braggart kabi leksemalar mavjudligi ikki tilli izohli lug’atlarda qayd etilgan⁴. Sanalgan leksemalar “maqtanchoq, manman” ma’nolarini ifodalash uchun xizmat qiladigan leksik birliklarning hammasi emas, albatta. Ingliz tilining milliy korpusida shunday ma’noni ifodalovchi o’ndan ortiq leksema berilgan: conceited, vain, arrogant, proud, bragging, egotistical, haughty, swaggering, pompous, narcissistic, cocky, pretentious, ostentatious, egotistic, crowing kabi⁵. Bu kabi leksemalarni jamlash ingliz tiliga doir mukammal lug’atlar, korpus va tezaruslarning yaratilganligi tufayli nisbatan oson kechadi. Ammo o’zbek tilining milliy va ta’limiy korpuslari endigina yaratilish bosqichida ekanligi bu tildagi leksik birlik ma’nosiga ma’nodosh bo’lgan boshqa birliklarni ajratish jarayonini birmuncha murakkablashtiradi. Ikki tilli inglizcha-o’zbekcha, o’zbekcha-inglizcha lug’atlarning asosan o’zbek mualliflar tomonidan tuzilishi ham bu jarayonga ta’sir qiladi. Lug’atlarning ham aksariyat hollarda o’zbek millatiga mansub foydalanuvchilarga mo’ljallanganligi ingliz tilida eng faol bo’lgan leksemalargagina e’tibor qaratilishiga sabab bo’lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B.12. – 124 b..
2. Бушуева Т.С. Прагматический аспект эвфемизмов и дисфемизмов в современном английском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Смоленск, 2005. – 20 с.
3. O’zbek tilining izohli lug’ati: 6 jildlik, 4-jild. – Toshkent: G’afur G’ulom, 2022. – B.1011. – 1082 b.
4. Butayev Z. Inglizcha-o’zbekcha, o’zbekcha-inglizcha lug’at. – Toshkent: O’zbekiston, 2017. – B.457. – 656 b.

³ O’zbek tilining izohli lug’ati: 6 jildlik, 4-jild. – Toshkent: G’afur G’ulom, 2022. – B.1011. – 1082 b.

⁴ Butayev Z. Inglizcha-o’zbekcha, o’zbekcha-inglizcha lug’at. – Toshkent: O’zbekiston, 2017. – B.457. – 656 b.

⁵ <https://www.powerthesaurus.org/crooked/definitions> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 20.12.2024.



5. <https://www.powerthesaurus.org/crooked/definitions> [Elektron manba:] Murojaat sanasi: 20.12.2024.
6. Каримов И.А. Юсак маънавият енгилмас куч.-Т.: Маънавият, 2008.
7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси: 12 жилдлик, 6-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2004. – Б.161.
- ?? Sodikova, N. G. (2021). PRESERVATION OF THE ROLE OF THE GERMAN LANGUAGE AS A MEANS OF SCIENTIFIC COMMUNICATION WITHIN THE FRAMEWORK OF THE CONCEPT OF MULTILINGUALISM. Theoretical & Applied Science, (8), 338-341.
- ?? Sodikova, N. (2019). On the influence of the main variants of English on German. SCOPE ACADEMIC HOUSE B&M PUBLISHING, 153.
- ¹ Содикова, Н. Г. (2019). РОЛЬ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА. ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ЛИНГВОДИДАКТИКАНИНГ КОММУНИКАТИВ АСПЕКТЛАРИ, 140.
11. Содикова, Н. Г. К ВОПРОСУ О ТЕНДЕНЦИИ К АНАЛИТИЗМУ В СОВРЕМЕННОМ НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ.